

QADIMGI XORAZM MADANIYATI

Fattoyeva Gavhar Hikmatillo qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakultet Tarix yo'nalishi 302-guruh 3-kurs talabasi va phd **Bezod Mirzayev**.

Anotatsiya: Dunyoda madaniyatlar xilma-xil. Lekin har bir madaniyat o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa madaniyatlardan farq qiladi. Shunday o'zgacha madaniyatlardan biri bu Xorazm madaniyati hisoblanadi. Xorazm diyorida qadim zamonlardan boshlab o'troq hayot shakllangan, xuddi shu bilan birga madaniyat ham. Xususan Xorazm xalqi kulolchilik, qurolsozlik va zargarlik kabi sohalar bo'yicha o'zining haqiqiy mo'jizalarini yaratgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, Yasht, Quyosh zamini, Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlari.

Annotation: There are many cultures in the world. But each culture differs from other cultures with its own characteristics. One of such special cultures is Khorezm culture. In the land of Khorezm, a settled life has been formed since ancient times, as well as culture. In particular, the people of Khorezm have created real miracles in the fields of pottery, weaponry, and jewelry.

Key words: Khorezm, Yasht, Land of the Sun, Tozabogyob and Amirabad cultures.

Xorazm hududi qadimda Amudaryo asoslaridan janubga tomon Murg'ob va Tajan daryolarining yuqori oqimigacha cho'zilgan. Xorazm haqidagi ilk ma'lumotlar Avesto, Dorolning Behistun hikoyalari, qadimiy yunon mualliflari hamda ilk o'rta asrlarning arab geograflari asarlarida uchraydi. Xorazm nomi Avestoda Xvarizem, qadim forsiychada Xvarazmish, lotincha da Chorasmiya va yunonchada Xorasmiya deb yuritilgan. Arabcha yozma manbalarda esa Xvorazm sifatida tilga olingan. "Xorazm" nomining semantikasi haqida bir qancha fikrlar mavjud. Xorazm tarixining bilimdoni S.P.Tolstov "Xorazm" nomi talqinlari orasida "Quyoshli o'lka", "Quyoshli yer" deb atalishini haqiqatga eng yaqin etonimdir deb ta'kidlasada, Xorazmni "Xvarri yoki xarri xalqi vatani", "quyosh zamini" deb izohlaydi. Avestoning "Yasht" qismida Xorazm "Ming irmoqli daryo", "Ko'llar va o'tloqlarga boy o'lka" sifatida madh etiladi. Qadimiy Xorazm mintaqalarining o'ziga xos tabiati, shubhasiz, qadimiy aholing turmush tarzini belgilab ham qolmay, balki bu diyorida vujudga kelgan qadimiy madaniyatlarning shakllanishi, rivoji va bir biriga qorishuviga ham kuchli ta'sir etgan. Shu boisdan Xorazmning Shimoliy qismida mil. avv. 4-3 mingyilliklarda ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirgan aholi yashagan bo'lsa, mil. avv. 2-ming yillik da esa chorvachilik va dehqonchilikning soddagina usullaridan xabardor bo'lgan qabilalar istiqamat qilgan. Mil. avv. 2-mingyillikning 2-yarmiga borganda xususan uning oxiri va mil. avv. 1-mingyillik boshlarida sug'orma dehqonchilik mukamallashib, yaylov chorvachiligi rivoj topgan. Bu davrda Tozabog'yob, Suvyorgan va Amirobod madaniyatlarining yaratgan qabilalar qorishmasi asosida tashkil topgan Kavundi qabilasi yashagan. Ular Xorazmning qadimiy aholisi massagetlarning bevosita ajdodlari bo'lgan. Ko'chmanchi chorvachilik xususan yilqichilik rivoji Xorazm aholisining ijtimoiy hayotiga ham kuchli ta'sir etib suvoriylar tabaqasini tashkil shakllantirgan. Xorazmning Janubiy qismida joylashgan vodiy va vohalar jumladan, Tajan, Herrirud, Murg'ob va Geoksurda esa 6-3-mingyilliklardayoq o'troq sug'orma dehqonchilik qaror topib, taraqqiy etgan. Mil. avv. 2 - ming yillik oxiri va 1-mingyillik boshlarida qadimiy sug'orma dehqonchilik madaniyatining hududlari sharq va janubi sharq tomon kengayib, Herrirud vodiysining yuqori oqimigacha yoyilgan. Shu boisdan Avestoda Xvarizem o'lkasi Areyadan Sharqda Hilmand vodiysida joylashgan deb ishora qilinadi.

Arxeologik ma'lumotlarning guvoh berishicha, aynan shu davrda Amudaryo etaklarida yashagan ko'chmanchi chorvadorlarning bir qismi janub tomon siljib to Shimoliy Hindiston hududlariga qadar borib o'rtnashganligi kuzatiladi.

Xorazmdan zardushtiylikning olovga siginuvchilar ibodatxonasi topilgan. Ibodatxona qoldiqlari Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi Xumbuz-tepa yodgorligida topilgan. Bu yerda mill. avv7asrdan milodiy 4 asrgacha sopollar ishlab chiqarilgan. Ushbu hududda topilgan ibodatxona mil. avv. 5-asr oxiridan 4-asr boshigacha mavjud bo'lgan. Qadimgi Hazorasp i nomi Azar-sipanddan (Muqaddas olov) dan kelib chiqqan. Hazorasp Zardushtning va muqaddas Avesto kitobning vatani deb taxmin qilinadi. Akademik S. P. Tolstov o'zining "Qadimgi Xorazm" asarlari va ilmiy maqolalarida zardushtiylikning muqaddas oloi Hazoraspda yoqilganligini ta'kidlaydi. Buning tasdig'i Humbuz-tepa ibodatxonasidir. Xorazm sivilizatsiyasi o'ziga xos xususiyatga ega badiiy madaniyat yodgorliklari bilan ajralib turadi. Mil. avv. 5-4asrlar chegarasiga oid Elxaras ibodatxonasi devorlarida o'simlik va geometrik naqsh namunalari aniqlangan. Shuningdek, yodgorlikda loydan ishlangan haykalchalar parchalari topilgan. Oqshaxonqala ibodatxonasining yo'lak devorlari rang barang suratlar bilan bezatilgan. **Jumladan, alohida kishilarning portretlari diqqatga sazovordir.** Ularning ayrimlari boshida toj tasviri tushirilgan. Shu bois mazkur portretlar "Xorazm noma'lum hukmdorlarning suratlar" deb atalgan. Tasviriy san'at obidalari ichida ko'p miqdorda uchraydigan antik davrga oid terrekota - sopol haykalchalar, odam yuzi aks etgan sopol niqoblar va sopol idishlar sirtidagi turli tasvirlar e'tiborga molikdir. Xorazmdan astronomiya, geometriya, matematika kabi aniq fanlar taraqqiy etgan. Ikki qavatli Qoyqirilgan qala ibodatxonasida osmon jismlarni harakatlari kuzatilgan. Xorazmlik kohin-astronomlar, Misr kohinlari Nil toshqinini bilishgani singari, Amudaryo suv sathini ko'tarilish vaqtini belgilab borishgan. Mil. avv. 5-4asrlar da oromiy alifbosi harflari tizimiga asoslangan Xorazm yozuv madaniyati shakllanadi. Qadimgi Xorazm yozuvi antik davrda keng yoyiladi. Bu yozuv 20ta harfdan iborat bo'lib, sopol siriga, chatga va yog'och sirtiga bitilgan. Xorazmdan saroy va ibodatxonalar qoshida boshlang'ich maktablar bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Bu maktabda bolalarni yozuv va hisobga o'rgatishgan. Ikkinchi bosqichda o'spirinlardan xo'jalik va ma'muriy ish yurituvchi xattotlar tayyorlanganligi ehtimoldan xoli emas. Antik davr Xorazm vohasida zartushtiylik talimoti keng yoyilgan. O'rta Osiyoda eng ko'p tarqalgan **ossuariy - suyakdonlar** aynan Xorazmdan topilgan. Xorazmliklar yer, suv, olov va havoga sajda qilib, mazkur muqaddas unsurlarni qadrlashgan. Vohada hosildorlik va otashparastlik marosimlariga oid ibodatxona va otashgohlar topilgan. Ular shaharlar va alohida voha - tumanlar hududlariga joylashib, diniy marosimlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xorazm ko'hna shaharlarida ko'pdan ko'p sopol haykalchalar topilgan. Ular orasida ayol haykalchalai diqqatga molik. Mazkur haykalchalar buyuk "Ona iloha" yoki suv, hosildorlik ma'budasi Anaxita ramzini o'zida aks ettiradi. Bundan tashqari Kushon davlati orqali Hindistondan Xorazmga buddaviylik dini ham kirib kelgan degan qarashlar ham mavjud.

Qadimgi davlatlar ichida Qadimgi Xorazm o'zining o'ziga xos madaniyati bilan alohida ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston tarixi 1-kitob. Toshkent 2021 yil.
2. O'zbekiston tarixi. (Q.Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova). Toshkent 2006-yil.
3. <http://taqvim.uz>

4.<http://xorazmiy.uz>

5.<http://khorezmiy.uz>.